

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**EGAMBERGANOVA DILNOZA DAVRONBEKOVNA**

**ABULHASAN MOVARDIY ASARLARI VOSITASIDA TALABALARNI  
MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH TIZIMINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2024**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Egamberganova Dilnoza Davronbekovna**

Abulhasan Movardiy asarlari vositasida talabalarni ma'naviy-axloqiy  
tarbiyalash tizimini takomillashtirish..... 3

**Эгамберганова Дилноза Давронбековна**

Усовершенствование систему духовно-нравственного воспитания  
студентов посредством произведений Абулхасана Моварди..... 23

**Egamberganova Dilnoza Davronbekovna**

Improving the System of Spiritual and Moral Education of Students through the  
Works of Abulhasan Movardi..... 45

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of publications..... 49

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**EGAMBERGANOVA DILNOZA DAVRONBEKOVNA**

**ABULHASAN MOVARDIY ASARLARI VOSITASIDA TALABALARNI  
MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH TIZIMINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2024**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Ped5622 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.ndpi.uz](http://www.ndpi.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xajiyeva Maksuda Sultonovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Juraev Xusniddin Oltinboyevich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Djurayev Dusmurod Uralovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Fargona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 Ilmiy kengashning 2025-yil «14» I soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seyitov ko'chasi raqamsiz uy.) Tel.: (99861) 229-40-75; faks: (99861) 229-40-75; e-mail: [nkspi\\_info@edu.uz](mailto:nkspi_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Nukus davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (99 - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seyitov ko'chasi raqamsiz uy. Tel.: (99861) 229-40-75; faks: (99861) 229-40-75.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «28» XII kuni tarqatildi.  
(2024-yil «28» XII dagi 99 - raqamli reestr bayonnomasi).



**B.P. Otemuratov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, f.-m.f.d., professor

**Z.K. Kurbaniozova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, p.f.d., professor

**A.K. Berdimuratova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi, f.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda tarixda samarali ijod qilib o'tgan mutafakkir olimlarning ilmiy-pedagogik merosini o'rganishga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Shunday mutafakkirlardan biri Abulhasan Movardiy bo'lib, uning ma'naviy-axloqiy va ilmiy-madaniy merosi nafaqat bugungi, balki keyingi avlod yoshlari tarbiyasida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Zero, alloma ijodiy faoliyatining asosiy ideali inson tarbiyasidir. "Ustoz" so'zining yuksak ma'nosi Abulhasan Movardiy qarashlarida juda ham o'rinli ifodalangan. Abulhasan Movardiy hayot uchun zarur bo'lgan mehnat va odob-axloq, san'at va ta'lim, odob va o'git, do'stlik va hamrohlik, burch va qarz kabi fazilatlarni xalqqa – kattaga ham, kichikka ham tushunarli darajada hayotiy misollar bilan yetkaza olgan. Mutafakkirning ma'rifat yo'lidagi pedagogik xulosalari, asosan, yoshlarni o'z xalqiga sadoqat bilan xizmat qiladigan haqiqiy fuqaro – "komil inson" qilib tarbiyalash maqsadiga asoslanadi.

Jahon ilm-fanida yetakchi ilmiy markazlar, tadqiqot institutlarida, xususan, bu yo'nalishda Indoneziyaning Islom Universiteti, Buyuk Britaniyaning Lids va Kembridj universitetlari, Saudiya Arabistonining Madina Islom Universiteti, Turkiyaning Dijle va Diyarbakir universitetlari; Shotlandiyaning Edinburg Universiteti, Hindistonning Oligarh Muslim Universiteti va boshqa bir qator mamlakatlarda Movardiy ta'limotning diniy, falsafiy, ma'rifiy-pedagogik, tarixiy asoslarining nazariy-metodologik jihatlari va ijtimoiy-siyosiy mohiyatini o'rganishga katta e'tibor berilmoqda. Movardiy ta'limotning diniy, falsafiy, ma'rifiy-pedagogik, tarixiy asoslarining nazariy-metodologik jihatlari va ijtimoiy-siyosiy mohiyatini o'rganishga katta e'tibor berilmoqda. Sharq mutafakkirlarining pedagogik fikr taraqqiyotiga qo'shgan hissasini o'rganishga oid fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Fan-texnika taraqqiyoti davrida, ma'naviyat moddiyatga bog'liq bo'lgan bir paytda inson tafakkurni va uning kamoloti, axloqiy qadriyat va me'yorlarni himoya qilish, madaniyat va tamaddun vakillari o'zlarining axloqiy qadriyatlar tizimini qayta ko'rib chiqishga va hozirgi globallashtirilgan voqelik talablariga mos keladigan tafakkurni shakllantirish zaruriyati tobora ortib bormoqda.

Mamlakatimizda bugungi kunda yoshlarni gumanistik qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularni bilimli va yetuk shaxs qilib kamolga yetkazish asosida olib borilayotgan islohotlar jadal suratlarida olib borilmoqda. Ayniqsa, allomalarning ma'rifiy va pedagogik tafakkurining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan tabiiy omillardan birinchisi u tug'ilgan muhit, ota-ona mehrining qudrati, uning qalbiga insoniylik fazilatlarining singdirilishi ekan, ta'kidlash joizki, bu muborak zotlarning ongi va tafakkuri islom tarixi va madaniyati bilan uzviy bog'liq. Bu borada, Prezidentimiz ta'kidlashicha, "ko'p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o'rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi<sup>1</sup>". Abulhasan Movardiyning ham yoshlarni

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5416-sonli Farmoni. 2018-yil 16-aprel.

ilmga, odob-axloqqa chorlovchi pedagogik qarashlari Sharqning boshqa mashhur allomalari g'oyalariga to'la mos keladi. U yetuk islom olimlarining muhim pedagogik fikrlarini qimmatli tamoyillar bilan to'ldirib, kelajak avlodga ma'rifatparvarlikning yangi an'anasini qoldirdi.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O'RQ-406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi, 2021-yil 5-iyuldagi O'RQ-699-son "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 10-fevraldagi PQ-126-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Abulhasan Movardiy milliy axloqiy merosini o'rganish G'arb va Sharq olimlari tomonidan juda keng tadqiq etilgan. O'zbekistonda al-Movardiyning ilmiy me'rosi tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar barmoq bilan sanarli bo'lib, bu borada professor A.Juzjoniy va akademik A.Saidovlarning ishi diqqatga sazovordir. Bundan tashqari Movardiyning asarlari tarixiy manba sifatida Z.M.Jo'rayevning dissertatsiyasida tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlilidan Markaziy Osiyo olimlari Movardiyning qarashlarini o'rganishda, asosan, pedagogik yondashuvlarga asoslanishgani ko'zga tashlanadi. Xususan, uning odob, axloq va huquq nazariyasi, davlat tuzilishi konsepsiyasi hamda shaxs fazilatlariga oid qarashlari M.Aytimbetov, S.Furkoni, G.Marchenko, P.Somayye, T.Tumanyan, F.Tojidinovlarning tadqiqotlarida aks etgan bo'lsa, Sh.Etimov, N.Kirbayev, Sh.Murodalilar esa pedagogik jihatdan yondashib, Movardiyning axloqiy qarashlari tahlilini amalga oshirishgan.

Jahon olimlaridan V.Mansur al-Movardiyning Islom tarixidagi ilk siyosatchi sifatida tadqiq qilsa, uning islom va davlat asoslari haqidagi fikrlari F.Rahmon va boshqalar, aql va ilm haqidagi qarashlari M.Xan, iqtisodiy siyosat haqidagi nuqtay nazar B.Do'g'an, H.Mikhail, A.Og'rak, M.Pichak, o'qituvchi axloqi haqidagi qarashlari B.Nudin, shuningdek, pedagogik qarashlarining turli aspektlari A.Ain, R.Diana, V.Haddod, S.Linda, A.Muhammadiy, S.Syamlar

tomonidan tadqiq ostiga olingan. A.Jayloniy iqtisodiy va diniy qarashlari qisoyini, H.Amedroz esa, yuridik sohaga oid fikrlarini, K.Jeremy esa falsafaga doir qarashlarini o'rganishgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq "Urganch davlat universitetini 2017-2030-yillarda rivojlantirish dasturi"ning 2.4-bandiga asosan "Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi" doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Abulhasan Movardiyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan ta'lim jarayonida samarali foydalanish imkoniyatlarini asoslash hamda amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Abulhasan Movardiy ilmiy-madaniy merosini o'rganishning tarixiy retrospektiv jihatlarini aniqlash, shuningdek, allomaning pedagogik qarashlarni o'rganishning metodologik asoslari, umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini pedagogik nuqtayi nazardan tahlil etish;

Abulhasan Movardiyning ta'lim va tarbiyaga doir pedagogik qarashlarini turkumlashtirish va tadqiq etish;

Abulhasan Movardiy ma'naviy-axloqiy qarashlarining ijtimoiy-madaniy va aksiologik xususiyatlarini o'rganish;

Abulhasan Movardiy pedagogik qarashlarida axloqiy kategoriyalar tasnifi imperativligi va zamonaviy milliy ta'lim-tarbiya paradigmasini rivojlantirishdagi potensial imkoniyatlari, ularning milliy va diniy qadriyatlar rivojidagi o'rniga doir ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekt**i sifatida Abulhasan Movardiy asarlari vositasida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish.

**Tadqiqotning predmeti**ni Abulhasan Movardiy asarlari vositasida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish jarayonining pedagogik shart-sharoitlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada analiz va sintez, qiyosiy tahlil, tizimlilik, umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:**

Abulhasan Movardiy ilmiy-madaniy merosining tarixiy retrospektiv jihatlarini, mutafakkirni ma'naviy-axloqiy yo'nalishlariga doir imitatsion va pedagogik g'oyalarning qiyosiy tipologiyasining mazmun-mohiyati asoslangan;

Abulhasan Movardiyning milliy pedagogik va diniy qadriyatlar falsafasining sinkretik, gumanistik xususiyatlari, ularning islom axloqshunosligi normalari va tamoyillariga oid yangi metodologik yondashuvlari hamda shaxsga yo'naltirilgan mantiqiy va intuitiv bilishni qaror toptirishning xulq-atvor, kasbiy-pedagogik komponentlari ochib berilgan;

oliy ta'limda talabalar axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda Abulhasan Movardiy pedagogik qarashlari asosida odoblilik, bag'rikenglik, vatanparvarlik,

insonparvarlik, bilim va ilm olish hamda kasb-hunar egallash kabi aksiologik qadriyatlarning individual, umumbashariy va milliy an'analarga xos tarbiyaviy samaradorlikni oshirish mexanizmlari takomillashtirilgan;

Abulhasan Movardiy pedagogik qarashlaridagi ta'lim-tarbiyaviy, axloqiy kategoriyalar tasnifi imperativligiga doir yondashuvlar aniqlangan hamda talaba-yoshlarda improvizatsion faoliyatni (yangi g'oyalar, dunyoqarash, ijodiy fikrlash) oshirishda pedagogik texnologiyalarni qo'llashga oid didaktik ta'minot tizimini takomillashtirish zarurati asoslangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:**

Abulhasan Movardiyning milliy pedagogik bilimlar rivojida tutgan o'rni va ahamiyatini ilmiy-amaliy jihatdan o'rganish orqali allomaning hayoti hamda asarlariga oid xorijiy va mahalliy doirada olib borilgan tadqiqotlar axloqiy komprativistika kesimida tahlil etilib, uning milliy pedagogik tafakkur rivojidagi o'rni ochib berilgan;

Abulhasan Movardiy ilmiy-ma'naviy merosining milliy va umuminsoniy qadriyatlarda sinkretlashuvi hamda yoshlar ta'lim-tarbiyasidagi o'rni va ahamiyatini samarali tashkil etishga oid bir qator tavsiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llangan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ular Abulhasan Movardiy asarlari vositasida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishdagi pedagogik jarayonni o'rganishga oid ilmiy tadqiqot ishlarida, ajdodlar merosini o'rganishning ahamiyatiga doir ilmiy izlanishlarda, islom dinining insonparvarlik mohiyatini tushunish, uning yoshlar tarbiyasidagi potensial imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog'liq yangi nazariy va empirik tadqiqotlar uchun muayyan nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazining joylardagi bo'limlari, fuqarolik yig'inlari, diniy tashkilotlar, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatlarida, talabalar bilan o'tkaziladigan muloqot, davra suhbatlarida, shuningdek, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining diniy ma'rifatga oid ko'rsatuv va radioeshittirishlarini tashkil etishda, "O'zbek xalqi pedagogikasi", "Pedagogika tarixi", "Islom pedagogikasi", "Sharq allomalarining ilmiy-pedagogik merosi", "Islom axloqshunosligi" fanlari bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Abulhasan Movardiy asarlari vositasida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish mavzusidagi tadqiqot natijalari asosida:

Abulhasan Movardiy ilmiy-madaniy merosining tarixiy retrospektiv jihatlarini, mutafakkirni ma'naviy-axloqiy yo'nalishlariga doir imitatsion va pedagogik g'oyalarning qiyosiy tipologiyasining mazmun-mohiyati asoslangan hamda Movardiyning milliy pedagogik va diniy qadriyatlar falsafasining sinkretik, gumanistik xususiyatlari, ularning islom axloqshunosligi normalari va tamoyillariga oid yangi metodologik yondashuvlari hamda shaxsga yo'naltirilgan mantiqiy va intuitiv bilishni qaror toptirishning xulq-atvor, kasbiy-pedagogik komponentlari ochib berilgan xulosalardan "Globallashuv asoslari" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 537361-raqamli guvohnoma). Natijada, bu takliflar oliy pedagogik ta'lim jarayonida foydalanish texnologiyalarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

oliy ta'limda talabalar axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda Abulhasan Movardiy pedagogik qarashlari asosida odoblilik, bag'rikenglik, vatanparvarlik, insonparvarlik, bilim va ilm olish hamda kasb-hunar egallash kabi aksiologik qadriyatlarning individual, umumbashariy va milliy an'analarga xos tarbiyaviy samaradorlikni oshirish mexanizmlari takomillashtirilgan xulosalardan "60112100 –Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishining malaka talabi mazmuniga singdirilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqodlar markazining

2024-yil 9-fevraldagi 02/01-01-17-sonli ma'lumotnomasi) Natijada, bu takliflar oliy ta'lim muassasalarida talabalarga Abulhasan Movardiy asarlari asosida vatanparvarlik hissini singdirish hamda ularning kasbiy mas'uliyatini oshirishga xizmat qilgan;

Abulhasan Movardiy pedagogik qarashlaridagi ta'lim-tarbiyaviy, axloqiy kategoriyalar tasnifi imperativligiga doir yondashuvlar aniqlangan hamda talaba-yoshlarda improvizatsion faoliyatni (yangi g'oyalar, dunyoqarash, ijodiy fikrlash) oshirishda pedagogik texnologiyalarni qo'llashga oid didaktik ta'minot tizimini takomillashtirish zarurati asoslangan xulosalardan "Globallashuv asoslari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga kiritilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 537361-sonli guvohnoma). Natijada, bu takliflar oliy pedagogik ta'lim jarayonida foydalanish texnologiyalarini takomillashtirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 5 ta xalqaro, 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (6 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiya ishining hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovadan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 121 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Abulhasan Movardiy ilmiy-madaniy merosini o'rganishning nazariy-metodologik masalalari”** deb nomlangan bo'lib, unda o'rta asr arab mutafakkiri Abulhasan al-Movardiyning (974-1058) ilmiy-madaniy merosi uzoq vaqtdan beri mamlakatimiz olimlari tomonidan o'rganilganligi pedagogik jihatdan ochib berilgan. Bobda mutafakkirning mashhur **“al-Ahkom as-sultoniyya”** risolasi va uning mazmun-mohiyati tahlil etiladi. Aytish joizki, Al-Movardiyning insonlar o'rtasidagi axloqiy munosabatlarni mustahkamlash borasidagi qarashlari o'ziga xos ma'noga ega. Nafaqat mazmun, balki janr jihatidan ham rang-barang bo'lgan bu asarlar ko'p jihatdan o'sha davr ma'naviy-axloqiy muhiti mazmun-mohiyatining ko'zgusiga aylandi. Ba'zi tadqiqotchilar ta'kidlashicha, al-Movardiy ijodining dastlabki davri fors (sosoniylar) siyosiy an'alarining kuchli ta'siri bilan tavsiflanadi, bu esa Eron shia Buyidlar sulolasi tomonidan Bag'dodda hokimiyatni tortib olishi bilan bog'liq (945-1055) va Abbosiy xalifalari vakolatlarining sezilarli darajada cheklanishi ham bunga sabab bo'lgan. Shu bilan birga, uning axloqiy ta'limoti islom liberalizmi bilan bog'liq jihatlarni o'z ichiga qamrab olganligi ham e'tiborga molik.

Tadqiqotda mutafakkirning ijtimoiy hayotning sog'lom va tartibli bo'lishi uchun zarur bo'lgan uchta asosiy unsurlarini ham ko'rsatib o'tadi: a) itoatkor nafs. Bu hukmdor uchun ham, boshqariladigan uchun ham muhim, chunki o'zini nazorat qila olmaydiganlar boshqalarni nazorat qila olmaydi; b) hamjihatlik - ajdod, qarindosh-urug'lik, do'stlik va xayrixohlik, ayniqsa, din orqali amalga oshiriladi, bu esa har tomonlama ijtimoiy birlik va manfaatlar birligiga olib keladi, hamjihatlik ruhini singdiradi. O'z tengdoshlari bilan aralasha olmaydigan odamlarni yomon odatlardan, masalan, xafagarchilik va toqatsizlikdan himoya qilib bo'lmaydi; d) yetarli mablag'. Bu masala sivilizatsiyalashgan jamiyat barpo etish sabablari bo'lgan ehtiyojlarni ishlab chiqarishda birdamlik va mehnat taqsimotini qamrab oladi.

Mazkur bobda Movardiy turli kasb-hunarlar bilan kun kechirish madaniyatli jamiyatning asos va himoya unsurlaridan biri ekanligi borasidagi fikrlar tahlil etiladi.

Alloma nafs haqida shunday deydi: **“Bilginki, nafs tabiatan o'z holiga erkin qo'yilib, ixtiyori mutlaq o'zida bo'lishni xohlaydi. Nafsning mahmud-**

maqtalgani ham, adablanish va rozi bo‘lingani ham islohgga muhtojdir. Chunki maqtalgan nafs uchun muqobil raqib mavjudki, o‘ziga tobe etuvchi hoy-u havas va g‘olib keluvchi shahvat unga yordam beradi. Batahqiq, aqlga suyanib yoki tabiatan eng yaxshi narsaga tavakkul etib, nafsga adab berishga yetarli e‘tibor qilinmasa, suyanish mujtahidlar nazoratini inkor etib, tavakkul noumid bo‘luvchilar nadomatini keltirib chiqaradi. Bas, adab foydasi yo‘q ishga aylanib, nodonlik qiyofasiga kiruvchidir. Chunki adab tajriba orqali o‘zlashadi yoki odat-ko‘nikma tufayli ma‘qul deb topiladi”.<sup>2</sup> Abulhasan Movardiyning “Dunyo va din odobi” kitobi olimning bugungi kungacha yetib kelgan eng mashhur asarlaridan biridir. Asar dastlab shunday yozilgan bo‘lsa kerak, keyinchalik ulamolar tomonidan qisqartirilib, shu nom bilan mashhur bo‘lgan. Movardiy o‘zining qisqa muqaddimasida insonning barcha faoliyati ichida eng muhimi din va dunyo ishlarini obod etuvchi asarlar ekanini ta’kidlab, bu asarida hayotning o‘lchov va qoidalarini (odob) diniy ta’limotdan tadqiq etishini ta’kidlaydi. U kitobini tayyorlashda Qur‘on va Sunnatdan, donishmandlarning ixcham so‘zlaridan, yozuvchilarning adabiy iboralari va shoirlar she‘rlaridan manba sifatida foydalanganligini ta’kidlaydi.

### 1.2.1-jadval

#### Movardiyning “Dunyo va din odobi” asari va uning pedagogik xaritasi

Asar (besh qismdan iborat)	Ta’lim-tarbiyaviy jihatlar	Yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati
<b>“Dunyo va din odobi” bu asarni mazmuni insonning barcha faoliyati ichida eng muhimi diniy va dunyo ishlarini obod etuvchi asar. Hayotning o‘lchov va qoidalarini (odob) diniy ta’limotlar izohlanadi</b>		
<b>Birinchi bob.</b> “Aqlning fazilati” deb nomlangan mazkur bobda, “havo”ning yomonligi-an’anaviy islom axloqining asosiy mavzularidan biri bo‘lgan aql va nafs to‘qnashuvi haqida muhim qarashlari ilgari surilgan. Ongning ta’rifi va tabiati, aql-tajriba munosabatlari kabi mavzularga urg‘u berildi.	Fikrning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini oshkor qilish. Ilmli va bilimli bo‘lish. Aqlni rivojlantirish. Nafsni jilolash.	Yoshlarda bilim egallash va har bir ishda aql bilan yondashish, nafsni tiyish, halollik va poklik asosida hayot kechirishga undaydi
<b>Ikkinchi bob.</b> “Ilm odobi” deb nomlangan bobda, ilm va din o‘rtasidagi munosabat, odamlarning ilm va olimlarga qarashi, ta’lim va tarbiya usullari, qoidalari, shogird-ustoz munosabatlari, fan-amal munosabatlari, olimlarning ma’naviy burch va majburiyatlari ko‘rib chiqiladi.	Ilmni egallash, ilm orqali diniy va dunyoviy bilimlarni yuksaltirish. Olimni axloqi, ma’naviyati, burchi va salohiyati, ilm egallash madaniyati shaklanadi.	Yosh avlod bilimli va ilmli bo‘lish, madaniyatli, ma’naviyatli shaxs bo‘lib yetishish xususiyatlarga ega bo‘ladilar. Insonlararo munosabatlarga kirishish va muloqat madaniyatini egallab olish jihatlariga ega bo‘ladilar

<sup>2</sup> Абулхасан Мовардий. Дунё ва дин одоби. -Т.: “Хилол-Нашр”, 2021.-280 б.

<p><b>Uchinchi bob.</b> “Din odobi” deb nomlangan bobda, burch va farz muammolari umumiy tarzda ko‘rib chiqiladi. Bu yerda “din” faqat Alloh va banda o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi bo‘lishdan tashqari, odamlarning Alloh va boshqa mavjudotlarga nisbatan barcha majburiyatlari va munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlar tizimi sifatida qaraladi.</p>	<p>Shaxsni jamiyat va davlat oldidagi, ota va ona oldidagi, oiladagi burch va majburiyatlarini bajarish hamda Alloh oldidagi majburiyat va farzlarni amalga oshirish.</p>	<p>Talabalarni ma’sulyatli va burchlarini amalga oshirish xususiyatlar namoyan bo‘ladi. O‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘zlikini anglash, milliy va umuminsoniy manfaatlarni amalga oshirishga undaydi</p>
<p><b>To‘rtinchi bob.</b> “Dunyo odobi” deb nomlanadi. Tajribalarga asoslangan izchil va yashashga yaroqli axloqiy tushuncha ilgari surilgan. Hamda, ijtimoiy birdamlik va hamjihatlikni odamlar o‘rtasidagi imkoniyatlar ko‘rsatiladi. Dunyo tartibining to‘liq o‘rnatilishi oltita asosiy shartning mavjudligiga bog‘liq: hurmatga sazovor din, kuchli siyosiy hokimiyat, har tomonlama adolat, umumiy xavfsizlik, keng tarqalgan farovonlik, katta umid va ezgu axloqdir.</p>	<p>Ijtimoiy birdamlik va hamjihatlikni, tinch-totuvlik asosida hayot kechirish, boshqalarga yordam berish jihatlarni tarkib topishi.</p>	<p>Talabalarda birdamlik, hamjihatlilik, bag‘rikenglik, sahiylik, insonparvarlik, millatlararo totuvlik g‘oyalari yuksala boradi</p>
<p><b>Beshinchi bob.</b> “Nafs odobi” deb nomlanadi. Bunda, axloqiy tarbiyada ikki asosiy yo‘l borligi, ya’ni boshqalarning bilim va tajribasidan foydalanish va shaxsiy harakat (riyoz) hamda fazilat sanalgan his-tuyg‘ular va xatti-harakatlar qabul qilingan an’anaviy islom axloqiyliigi kabi masalalar ko‘rsatiladi.</p>	<p>Nafsga berilmaslik, halol va adolatli bo‘lish, shaxsiy xatti-harakatlari va his-tuyg‘ularni nazorat qilib borish.</p>	<p>Talaba va yoshlarni nafsni tiyish hamda jilovlash, har bir ishni adolatli, to‘g‘ri olib borish, go‘zal xulqli kishilardan o‘rnak olish kabi fazilatlar shakllanadi</p>

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Abulhasan Movardiyning ma’naviy-axloqiy ta’limotiga oid qarashlaridan foydalanishning shakl, metod va vositalari**” deb nomlangan bo‘lib, unda Movardiyning “Dunyo va din odobi” asari, uni diniy axloq nazariyasining asoschilaridan biri sifatida qabul qilish kabi masalalar ochib beriladi. Garchi asar o‘zidan oldingi adabiyot, falsafa va zohidlik an’analari bilan bog‘langan bo‘lsa ham, mazmunan “odob” iborasi va ifodalashda qo‘llagan misollar orqali, tasnifi va o‘ziga xosligi jihatidan alohida ahamiyat kasb etadi. Odob so‘zi, ayniqsa, diniy axloqiy tarbiyada axloq va xulq-atvor qoidalarini ifodalovchi umumiy qo‘llanishga ega. Movardiy ham bu qo‘llanishni meros qilib oladi va kitobini ilm-fan adabiyoti, din adabiyoti, dunyo adabiyoti va shaxs, ruh adabiyoti bilan bog‘liq asosda quradi. Shu nuqtayi nazardan, u din, dunyo, ilm va shaxsiyat qaysi unsurlar ustiga qurilgan bo‘lsa, haqiqatda vujudga kelishini “o‘z adabiyoti” ta’kidlashi bilan ifodalaydi.

Al-Movardiy barcha insonlar ta’lim orqali fazilatga ega bo‘lishi mumkinligini qabul qilgan. Biroq, uning fikricha, oddiy odamlar an’anaviy

axloqdan farqli o'laroq, shohlardan ko'ra ko'proq manfaatdor va orttirilgan axloqni egallashga moyil bo'ladilar. Oddiy odamlar axloq orqali ko'rishlari mumkin bo'lgan foydadan yoki uning yo'qligida yetkazadigan zararidan qo'rqib, axloqni egallashga ko'proq vaqt ajratadilar. Oddiy odamlardan farqli o'laroq, shohlar o'zlarining orttirilgan axloqi bilan ko'p narsaga ega emaslar yoki yo'qotadilar. Lekin podshohning orttirilgan axloqiy qadriyatlarga qiziqishi uning xizmatining buyukligini va tabiatining oliyjanobligini ko'rsatadi. Shunisi ham borki, haqiqatda hech bir podshoh bu axloqdan mustaqil qola olmaydi. Chunki orttirilgan odob-axloq hukmdorning shaxsiy fazilatigina emas, balki uning ma'muriy mahorati va xalqi ustidan ma'muriy nufuzini oshirishning samarali quroli hamdir<sup>3</sup>.

Bobda Abul Hasan al-Movardiyning ma'naviy merosini oliy ta'lim muassasalari talabalariga dars mashg'ulotlarida joriy etishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish doimo kompleks xarakterga ega bo'lib, unda faqat bittagina metoddan yoki omildan foydalanilmasligi, ya'ni quyida keltiriladigan turlargagina xos bo'lgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish maqsadga muvofiqligi asoslangan.


“Pedagogika nazariyasi va tarixi” va “globallashuv asoslari” fanlari orqali Abulhasan al-Movardiyning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarini yoshlarga taqdim etishning Klassik ma'ruza metodi orqali dars ishlanmalari ko'rsatib beriladi.

Dissertasiyaning uchunchi bobi, **“Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish”** deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda mutafakkirning fikrlariga tayangan holda, aql bu din uchun zarur bo'lib, odamlarning fazilatini, dunyo uchun insoniyligini davom ettirish uchun bevosita manba bo'la olishi, inson o'z diniga amal qilishi uchun aqli to'la bo'lishi kerakligi, chunki din aqlga asoslanishi borasida fikr yuritiladi. Movardiy aqlning muhimligini ta'kidlar ekan, Qur'oni Karimdan iqtibos keltiradi: “Agar quloq solib, aqlimizni ishga solganimizda edi, bu telba jahannam olovida qolmas edik” oyatini misol qilib, jahannam azobiga boradigan kimsalarning o'zlari tufayli ekanligini ta'kidladi. Qur'onning ko'p joylarida aql haqida oyatlar bor va islom dini farzlarini bajarishda aqlning umumiy shart ekanligi dalildir. Movardiy gunohkor odamlarning azoblanishiga sabab aqllarini ishlatmasliklari ekanligini ta'kidladi. Aqlini ishga solgan insonlar to'g'ri va noto'g'rini ajrata oladilar, dinning amr va taqiqlarini tushunadilar hamda ularni qo'llash orqali do'zax olovidan qutuladilar, deya fikr yuritdi. To'g'ri va noto'g'rini farqlashda inson o'z hayoti va tajribasi orqali to'plagan aqlidan foydalanadi. Bu borada Movardiy aqlning yaxshilik va yomonlikni ajrata olishini ta'kidlar ekan, u aqlni ikki qismga ajratadi: tabiiy aql va orttirilgan aql<sup>4</sup>.

---

<sup>3</sup> Mâverdî, Ebu'l-H. (1981). Kitâbu teshîlu'n-nazar ve ta'cili'z-zafer fi ahlâki'l-melik ve siyâseti'l-mülk, (M.H. es-Serhân, Tahk.), Beyrût: Dâru'n-nahdati'l-arabiyye, 10 bet.

<sup>4</sup> Mâverdî, Ebu'l-H. (1981). Kitâbu teshîlu'n-nazar ve ta'cili'z-zafer fi ahlâki'l-melik ve siyâseti'l-mülk, (M.H. es-Serhân, Tahk.), Beyrût: Dâru'n-nahdati'l-arabiyye 31bet.



3.1 –jadval. Abulhasan Movardiy qarashlaridan talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasida foydalanishning pedagogik modeli

Oliy ta'lim talabalarida Al-Movardiyning hayoti va ijodi hamda ularning ma'naviy-axloqiy qarashlariga doir bilimlarning nazariy va amaliy holati pedagogik jihatdan tahlil qilinib, uni yuqori, o'rta hamda past darajalarga ajratildi. Xususan,

**Yuqori daraja** – mazkur guruh talabalari, Al-Movardiyning hayoti va ijodi to'liq va mukammal bilimga egadirlar. Al-Movardiy yoshligida ilohiyotni chuqur o'rganganligidan xabardorlar, Basra va Bag'dod mo'taziliylar maktabining markazlari bo'lgan (Mo'taziliylar harakati VIII asrdan beri birinchi sunniy ilohiyot maktabi deb yuritilganligi, Al-Movardiy asarining tadqiqotchilari unga "Nasihat al-muluk" risolasining muallifligini, shuningdek, aftidan, keyinroq, lekin mazmuni va taqdimot shakliga ko'ra o'xshash yana bir asari – "Tashil an-nazar va-ta" muallifi ekanligini bilishlari, "Nasihat al-muluk" allomaning eng asosiy asari ekanligi va unda davlat boshqaruvining turli masalalari bo'yicha hukmdorlarga ma'naviy-axloqiy mazmundagi ko'rsatmalar mavjudligi haqida bilim va tasavvurlarga egadirlar. Shu bilan birga, Al-Movardiy jamiyat va hokimiyat o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirar ekan, nafaqat forslarning ilmiy-madaniy merosiga tayanadi, balki qadimgi yunon falsafasi elementlari aniq namoyon bo'lgan turli metaforik misollarga ham alohida e'tibor qaratganligi borasida chuqur bilimga egadirlar. Al-Movardiyning "al-muluk" asarining mazmuni va mohiyatini anglay olishlari va shu bilan birga, "Dunyo va din odobi" asari va uning pedagogik g'oyalarini alohida qiyosiy tahlil eta oladilar. Bu asarlardagi axloq, odob, xulq masalalarini pedagogik jihatdan yoshlar tarbiyasiga taqdim qila oladilar. Ilmni egallash, ilm orqali diniy va dunyoviy bilimlarni yuksaltirish borasidagi g'oyalarni ko'rsatib bera oladilar.

**O'rta daraja** – bu guruhdagi talabalar, Al-Movardiyning hayoti va ijodi bo'yicha ma'lum ma'lumotlarga egadirlar. Al-Movardiy yoshligida ilohiyotni chuqur o'rganganligidan xabardorlar, mutafakkirning "Dunyo va din odobi" asarining mazmun va mohiyatini tushuna oladilar. Bu asarlardagi axloq, odob, xulq masalalarini pedagogik jihatdan yoritib bera olishadi. Abulhasan Movardiyning "Dunyo va din odobi" kitobi insonning barcha faoliyati ichida eng muhimi din va dunyo ishlarini obod etuvchi asarlar ekanligi, bu asarida hayotning o'lchov va qoidalarini (odob) diniy ta'limotdan tadqiq etishini ta'kidlanishi izohlanadi. Asar besh qismdan (bob) iboratligi, birinchi qismi "Aqlning fazilati va "havo"ning yomonligi deb nomlanib, unda an'anaviy islom axloqining asosiy mavzularidan biri bo'lgan aql va nafs to'qnashuvi haqida muhim qarashlari ilgari surilganini anglab yetadilar. Talabalar "ilm odobi" deb nomlangan ikkinchi bobda ilmning qadri, ilm va din o'rtasidagi munosabat, odamlarning ilm va olimlarga qarashi, ta'lim va tarbiya usullari, qoidalari, shogird-ustoz munosabatlari, fan-amal munosabatlari, olimlarning ma'naviy burch va majburiyatlari haqida bilimga egadirlar. Talabalar shu asardan tashqari boshqa asarlar bo'yicha ma'lumotlarga ega emaslar.

**Past daraja** – bu guruhdagi talabalar, Al-Movardiyning hayoti va ijodi bo‘yicha qisqa ma’lumotga egalar. Mutafakkirning “Dunyo va din odobi” asarining borligini biladilar, ammo uning mazmun va mohiyatini anglay olmaydilar. Mutafakkirning “Nasihat al-muluk” asari haqida umuman bilimga ega emaslar. Uning ta’lim-tarbiyaviy qarashlarini tahlil qila olmaydilar.

Tajriba-sinov ishlari Urganch davlat universiteti, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, O‘zbekiston-Finlandiya instituti bazasida o‘tkazildi. Tajriba-sinov ishlariga 539 nafar talabalar jalb qilindi, shundan, 274 nafar talabalar tajriba guruhlarida va 265 nafari nazorat guruhlarida qatnashishdi.

Pedagogik tadqiqotlarda taklif etilayotgan metodikaning samaradorligi tajriba-sinov ishlari yakunida qayd etilgan ko‘rsatkichlarni o‘zaro qiyoslash orqali ko‘rsatildi. Natijalarni qayta tahlil etishga oid matematik-statistik metodlarda ilgari surilayotgan g‘oyaga ko‘ra, qayta tahlil aynan tajriba va nazorat guruhlarida tajriba-sinovi qatnashayotgan talabalarning tajriba yakunidagi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi farqni belgilash orqali tadqiqot samaradorligiga baho berildi. Ana shu maqsadda K.Pirsonning  $\chi^2$  mezoniga muvofiq tajriba va nazorat guruhlarida talabalarining birinchi bosqich yakuniy ko‘rsatkichlari bilan ikkinchi, uchinchi va yakuniy bosqich ko‘rsatkichlari o‘zaro qiyosiy tahlil qilindi.

Bunda  $H_0$  gipoteza sifatida tajriba va nazorat guruhlaridagi kuzatuv davrida baholash turlari bo‘yicha kutilayotgan ehtimollik teng deb, muqobil  $H_1$  gipotezada teng emas deb olinadi. Ya’ni,  $H_0$  - tajriba va nazorat guruhlarida tajriba-sinov ishlari o‘tkazilgandan so‘ng, talabalarning bilim darajalarida katta o‘zgarish sezilmaydi.

$H_1$  - tajriba va nazorat guruhlarida sezilarli o‘zgarishlar kuzatiladi.

Mazkur statistik gipotezani tekshirish uchun, birinchidan empirik qiymatni kritik qiymat bilan solishtirish uchun ahamiyatlilik darajasi  $\alpha$  aniqlashtirib olinadi. Pedagogik tadqiqotlarda ( $\alpha$ ) ning qiymati 0,05 ga teng deb olinadi. Bu holda ishonchlilik ayirmasi  $1 - \alpha$  ning  $1 - 0,05 = 0,95$ , ya’ni 95 % ishonchlik darajasiga teng ekanligi aniqlandi.

$\chi_i^2$  ning  $\alpha = 0,05$  bo‘lgandagi kritik qiymati 4.3.1-jadvalda berilgan.

$\chi_i^2$  ning  $\alpha = 0,05$  bo‘lgandagi kritik qiymati

### 3.1.1- jadval

$M-1$	1	2	3	4	5
$\chi_i^2$	3,84	5,99	7,81	9,49	11,07

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, talabalarning dastlabki o‘zlashtirish darajalari o‘rganildi. Tajriba-sinov ishlarida qatnashgan talabalar haqidagi dastlabki ma’lumotlar quyidagi jadvalda ifodalandi (4.3.2-jadvalga qarang).

## Tajriba-sinov ishlarida qatnashgan talabalarning dastlabki va oxirgi natijalari

Guruhlar	Talabalar soni	Baholar							
		TB	TO	TB	TO	TB	TO	TB	TO
		“2”		“3”		“4”		“5”	
<b>Urganch davlat universiteti</b>									
Tajriba	82	15	1	31	4	23	53	13	24
Nazorat	74	13	11	26	27	23	22	12	14
<b>O‘zbekiston-Finlandiya instituti</b>									
Tajriba	91	21	1	44	11	16	42	10	37
Nazorat	87	19	18	45	40	14	17	9	12
<b>Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti</b>									
Tajriba	101	17	1	61	5	14	63	9	32
Nazorat	104	16	19	63	52	17	20	8	13
<b>Jami OTMLar bo‘yicha</b>									
Tajriba	274	53	3	136	20	53	158	32	93
Nazorat	265	48	48	134	119	54	59	29	39

## Talabalarning tajriba oxiridagi natijalari:

$$X_{emp}^2 = 274 \cdot 265 \cdot \left[ \frac{\left(\frac{3}{274} - \frac{48}{265}\right)^2}{3+48} + \frac{\left(\frac{20}{274} - \frac{119}{265}\right)^2}{20+119} + \frac{\left(\frac{158}{274} - \frac{59}{265}\right)^2}{158+59} + \frac{\left(\frac{93}{274} - \frac{39}{265}\right)^2}{93+39} \right] \approx 177.4;$$


$$\bar{x} = \frac{1}{274} \cdot [2 \cdot 3 + 3 \cdot 20 + 4 \cdot 158 + 5 \cdot 93] \approx 4.25;$$

$$\bar{y} = \frac{1}{265} \cdot [2 \cdot 48 + 3 \cdot 119 + 4 \cdot 59 + 5 \cdot 39] \approx 3.34;$$

$$\eta = \frac{4.25}{3.34} \approx 1.27.$$

